




**AL FARG'ONIY ILMIY
ME'ROSI, ILM-FAN
TARAQQIYOTIDAGI
HISSASI, BUGUNGI
KUNDAGI O'RNI**



respublika miqyosdagi
iqtidorli talabalar
ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari to'plami
2023 yil 12 aprel



**“FARG’ONiyShUNOS
TADQIQOTChILAR”
jamoasi**



**ALFRAGANUS
UNIVERSITY**



**“ALFRAGANUS”
xalqaro ilmiy jurnali**

AL FARG’ONiy ILMIY ME’ROSI, ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI HISSASI, BUGUNGI KUNDAGI O’RNI

**respublika miqyosdagi iqtidorli talabalar
ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to’plami**

2023 yil 12 aprel



**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2023**

UO'K: 52(092)(575.146)

KBK: 22.654g(50')

A 87

Al Farg'oniy ilmiy me'rosi, ilm-fan taraqqiyotidagi hissasi, bugungi kundagi o'rni [Matn] : maqolalar to'plami / Alfraganus University. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 160 b.

Ushbu ilmiy-amaliy konferensiya ALFRAGANUS UNIVERSITY “Farg'oniyshunos tadqiqotchilar” jamoasining Ahmad Al Farg'oniy ilmiy-ijodiy faoliyatini o'rganish borasidagi ilk tadqiqotlarining namoyon bo'lishidir.

Iqtidorli talabalar tomonidan Ahmad Al Farg'oniy ilmiy-ijodiy faoliyati chuqur tahlil etildi, mutafakkirning amaliy faoliyati o'rganib chiqildi va ushbu tadqiqotlar asosida ilmiy ma'ruzalar tayyorlandi. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami aynan ushbu ma'ruza materiallari tezislaridan shakllangandir.

Mas'ul muharrir: i.f.d., prof. F.T. Egamberdiyev

Tahrir hay'ati:

PhD A.Sh.Obidov

PhD S.Sh.Xalilov

PhD G.N.G'oyibnazarova

f.f.n., dots.N.G.Jurayeva

Taqrizchilar:

i.f.n., prof. N.G. Muminov

PhD M.N.Raximjanov

Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

ISBN 978-9943-9590-0-2

© ALFRAGANUS UNIVERSITY, 2023.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2023.

MUNDARIJA

Bahodirov Muxammadqodir Jahongir o'g'li. Ahmad	5
Farg'oniy me'rosi	
Mirkomilova Nazakat Mirkhalilovna. Al-Farghani scientific	8
norm, contribution to the development of science and its role for today	
Nomozova Muborak To'liqin qizi. Yuksak ma'naviyatli	14
yoshlarni tarbiyalashda O'rta Osiyo allomalari ilmiy merosining o'rni	
Norsaidova Munisa Zafarjon qizi. Al-Farg'oniy ilmiy me'rosi –	17
Kelajakning tamal toshi	
Oripov Azizbek Abdusalol o'g'li. Ahmad Farg'oniyni hayot	25
yo'li va uning ilmiy kashfiyotlari	
Xolboyeva Mushtariy Absalamovna. Al Farg'oniy ilmiy	29
me'rosi, ilm-fan taraqqiyotidagi hissasi, bugungi kundagi o'rni	
Nabiyeva Roziya Ulugbekovna. Yer meridianini arqon bilan	35
to'g'ri o'lchagan buyuk muhandis.	
Sobirjonova Mohira Shokirjon qizi. Al Farg'oniy ilmiy	40
me'rosining ilm-fan taraqqiyotidagi qo'shgan hissasi	
Mirzayeva Salomat Mirmuhsin qizi. Al Farg'oniy ilm-fan	45
taraqqiyotidagi hissasi	
Qudratov Abdulaziz Lutfullo o'g'li. Farg'oniyni dunyo	49
minnatdor	
Xudoyberdiyeva Gulzor. Olimpizm – qadim qadriyatlar va	54
g'oyalarda mushtarak harakat	
Xoshimova Dilnoza Sobit qizi. Ahmad Al Fergani – Uzbek	61
encyclopedic scholar	
Shuhratova Shaxina Bahodirovna. Al-Farg'oniy ilk o'rta asr	66
falakiyot ilmi olimi	
Abduvahobov Abdulaziz Abduvohid o'g'li. Ahmad Al-	72
Farg'oniyni fan olami	

Tursunova Zulfizar Salimjon qizi. Al- Fargʻoniyning hayoti va ijodi haqida	78
Qoʻziyev Xamro Sevindi oʻgʻli. Ahmad al-Fargʻoniy vorislarimiz	85
Islomova Marjona Isroil qizi. Al Fargʻoniy ilmiy meʼrosining bugungi kundagi oʻrni	91
Sadriddinov Abdumalik Akrom oʻgʻli. Fargʻoniyni tebratgan tuproq	95
Anorqulova Mohira Risbekovna. Ahmad Al-Fargʻoniyning Ilmiy merosi	99
Zoxidova Guliraʼno Salohiddin qizi. Mutafakkir Fargʻoniy tilsimotlari	105
Abdulayeva Saodatxon Murod qizi. Yangi Oʻzbekiston sharoitida turizmni rivojlatirishning tarixiy va ilmiy asoslari	108
Oʻtkurova Xadicha Tolqin qizi. Al Fargʻoniy oʻrta asrlar davrining buyuk mutafakkiri	119
Choriyeva Farida Faxriddin qizi. Ahmad al-Fargʻoniy hayot yoʻli va mustaqillikdan keyingi extiromlar.	124
Abdullayeva Saodatxon Murod qizi. Al Fargʻoniy ilmiy meʼrosi, ilm-fan taraqqiyotidagi hissasi	126
Xalilova Muslima Xusan qizi. Ahmad al-Fargʻoniyning maʼnaviyati	134
Qobilov Shahboz. Talaba yoshlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirish	137
Azizova Nodira. Al Fargʻoniy qomusiy ilm egasi	143
Vaxobov Muxammadali Dilmurod oʻgʻli. Buyuk astronom, matematik va geograf al-Fargʻoniy	152

VAXOBOV

Muxammadali Dilmurod oʻgʻli

ALFRAGANUS UNIVERSITY

Iqtisodiyot fakulteti Jahon

iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy

munosabatlar yoʻnalishi

2-kurs talabasi

Buyuk astronom, matematik va geograf al-Fargʻoniy

Annotatsiya. Oʻrta osiyo mutaffakiri Ahmad al fargʻoniy yashab oʻtgan davrlaridagi ilmiy ishlari va bugungi kunga qoldirgan ilmiy meroslari va uning bugungi kun ilm fan tarqqiyotidagi xissasi.

Kalit soʻz. Astronomiya, yulduz, sfera, geografiya, Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum, Nil,Misr, matematik, arabshunos

Hozirgi kunda yurtimiz olimlari uzoq oʻtmish mutafakkirlari qoldirgan ilmiy merosni oʻrganib, oʻzlarining yangi kashfiyotlari bilan fanni boyitgan holda oʻzlarining munosib hissalarini qoʻshmoqda. Xususan, Ahmad al-Fargʻoniyning tarixini oʻrganishda ham ilmiy merosga boyligini bilib olishmoqda. Ushbu maqola «Al-Fargʻoniyning ilmiy meʼrosi» va ilm fan traqqiyotidagi hissasi bugungi kundagi oʻrni haqida yozildi.

Buyuk astronom, matematik va geograf al-Fargʻoniy oʻzining ilmiy kashfiyotlari bilan umumbashar taraqqiyotga salmoqli hissa qoʻshgan.

Ahmad al-Fargʻoniy uning toʻliq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kassir al-Fargʻoniy 798-yilda Fargʻonaning Quva shahrida tugʻilgan, shu yerda ilmiy taʼlim olgan va voyaga yetgan. Keyinchalik Marv, Bogʻdod va Hirot madaniy markaz bolgan shaharlarida oʻz ilmini mustahkamlagan va ilmiy ishlar olib borgan. Bogʻdoddagi «Bayt ul-Hikma» nomli akademiyada ilmiy ishlar bilan shugʻullangan. U matematika, astronomiya, geografiya va boshqa

ilmiy yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatgan qomusiy olimdir. Sharqda Al-Farg'oniylar, G'arb mamlakatlarida esa Alfraganus taxalluslari bilan mashhur bolgan. Uning hayoti va ijodiy faoliyati to'g'risida juda oz ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. Tarixchi olimlarning aytishicha 11 ta asar yozib qoldirgan va shulardan 8 tasi bizgacha yetib kelgan. Bular «Astronomiya ilmining boshlanishi kitobi», «Astronomiya fanining qisqacha mazmuni», «O'ttiz element», «Sfera bo'yicha nazariy hisoblar» va «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum» asarlaridir. Ushbu asarlardan «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum» asari juda mashhurdir. Ushbu asar astronomiya faniga bag'ishlangan bo'lib, XII asrdayoq lotin va ibroniy tillariga tarjima qilingan. Al-Farg'oniylar nafaqat astronomiya balki geografiya sohasida qilgan ilmiy ishlari hozirgacha o'rganib kelinmoqda. 832-833 - yillarda Shom (Suriya) davlati shimolidagi Sinjor dashtidagi Tadmur va ar-Raqqa oralig'idagi yer merdinalining bir darajasini o'lachashda qatnashgan. Bobomiz 861-yilda xalifa Abul-Fayz buyrug'i bilan Misr davlatiga maslahatchi sifatida yuboriladi. U yerda Nil daryosidagi suv sathini o'lchaydigan inshoot barpo etishadi. Misrning Qohira shahri yaqinidagi Fustat shahriga keladi bu yerda Miqyos an-Nil nomli suv sathini o'lchovchi asbob yaratishadi. Ushbu inshoot hozirga qadar Nil daryosining Sayolat ul-Rad shahrida yaroqli holda saqlanib qolgan. Qomusiy olimimiz taxminan 865-yilda vafot etgan. Yevropa Uyg'onish davrining mashhur olimi Regiomontan XV asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyaga doir ma'ruzalarini Al-Farg'oniylar asarlari asosida o'qigan. Al-Farg'oniylar nomi Dante (XIV asr) va Shiller (XVIII asr) tomonidan tilga olinadi. Yevropa olimlaridan D'alamber, Brokelman, X. Zuter, I. Yu. Krachkovskiy, A. P. Yushkevich, A. Rozenfeldlar Al-Farg'oniylarining ijodiga va qoldirgan ilmiy merosiga yuqori baho berganlar.

Bizning davrimizgacha Al-Farg'oniylarining 8 asari saqlanib qolgan (lekin bular hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan). Asarlarning qo'lyozmalari jahonning turli shaharlari — Berlin, Dushanbe,

London, Parij, Tehron, Toshkent, Mashhad, Patna, Rampur, Xalab va Qohiradagi yirik kutubxonalarda saqlanmoqda

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng allomalaramiz tarixini qayta tiklash va ularning xotirasini abadiylashtirishga katta e'tibor berildi. Xususan, birinchi prezidentimiz I.A.Karimov qaroriga ko'ra 1998-yilda Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yilligi nishonlandi. Ushbu kun nafaqat yurtimizda balki YUNESCO miqyosida ham keng nishonlandi. Uning xotirasini abadiylashtirish maqsadida tug'ilib o'sgan Quva va Farg'ona shaharlarida uning haykallari o'rnatildi. Farg'ona shahrida uning nomi bilan ataluvchi istirohat bog'i yaratildi. 2007- yilda esa Misrning Qohira shahri yaqinidagi Assuvon suv ombori hovlisida bobomiz haykali o'rnatildi. Qohirada vatandoshimizga qo'yilgan haykal shubhasiz, Misr xalqining unga bo'lgan cheksiz muhabbatini ifodalaydi. XX asrda esa oydagi kraterlardan biriga bobomiz nomi qo'yildi.

Ahmad al-Farg'oniyning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish O'zbekistonda mustaqillikdan keyin boshlandi. 1998-yil Al-Farg'oniyning 1200-yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Farg'ona shahrida Al-Farg'oniy nomi bilan ataladigan istirohat bog'i va qadimiy Quva shahrida Al-Farg'oniy haykali o'rnatildi. Agar al-Farg'oniy va al-Xorazmiy hayotini solishtirsak, quyidagilarni tushunishimiz mumkin. Ma'lumki, al-Xorazmiy nomi yozma manbalarda oxirgi marta al-Vosikning vafoti munosabati bilan 847 yilda tilga olingan. Shuning uchun al-Xorazmiy vafot etgan sana 850 yil deb hisoblanadi. Va al-Farg'oniy nomi oxirgi marta 861 yilda Nil daryosida nilometr yordamida o'tkazilgan o'lchovlar munosabati bilan tilga olingan. 819-yilda 20-25 yoshlarida al-Ma'mun bilan birga Marvdan Bag'dodga ketganini hisobga olsak, u holda 797 yoki 798-yillarda tug'ilgan deyishimiz mumkin. Va u 67-68 yilgacha yashadi.

Ahmad al-Farg'oniyning **“Astronomiya ilmining boshlanishi kitobi”, “Osmon sferalarining sabablar bog'liqligi to'g'risida kitob”, “Astronomik harakatlar to'g'risida kitob”, “Astronomiya fanining qisqacha mazmuni”** kabi asarlari **“yulduzlar”, “O'ttiz**

element”, “Sfera bo’yicha nazariy hisoblar” astronomiyaga oid ilk asarlar qatoriga kiradi. Olim ulardagi astronomiyaga qisqacha tavsif berib, asosan iskandariyalik olim **Klavdiy Ptolemeyning** (milodiy 2-asr) “Astronomiyaning buyuk matematik tizimi” asarlariga to’xtalib o’tgan.

Al-Farg’oniy kitobida ma’lum geografik nuqtalar jadvalini koordinatalarini ko’rsatgan holda Sharqdan G’arbgacha yetti iqlimga moslab joylashtirgan. Al-Farg’oniy **“Geografiyaga kirish”**, “Yer yuzida ma’lum bo’lgan mamlakatlar va shaharlarning nomlari, shuningdek, ularning iqlim sharoiti” asarlari muallifidir.

Farg’oniyniing **“Osmon harakati kitobi va yulduzlar ilmlari to’plami”** risolasi 30 bobdan iborat bo’lib, o’z davrining astronomik bilimlarining ixcham ensiklopediyasidir. Risola 12-asrdagi tarjimalar tufayli Yevropada keng tarqaldi. arab tilidan lotin tiliga o’tgan va 13-asrda boshqa Yevropa tillarida. Birinchi marta 1493 yilda nashr etilgan. Farg’oniyniing astronomiya sohasidagi asarlari Yevropada 700 yil davomida qomus va o’quv qo’llanma sifatida foydalanilgan.

Al-Farg’oniy amaliyotchi bo’lib, samoviy jismlarni kuzatgan holda ko’plab kashfiyotlar qilgan. Shunday qilib, u Yerning sharsimonligini ilmiy jihatdan isbotladi, yilning eng uzun kunini - 22 iyunni va eng qisqa kunini - 23 dekabrni belgiladi. Farg’oniy ham quyosh dog’lari mavjudligini aniqlagan va 832 yilda sodir bo’lgan quyosh tutilishini bashorat qilgan.

Al-Farg’oniyniing hayoti haqidagi ma’lumotlar juda kam bo’lganligiga qaramay, o’rta asrlarda Sharqda uning nomi mashhur bo’lgan. Akademik M.Xayrullayevning ta’kilashicha Ibn an-Nadim (X asr), Ibn al-Qiftiy (XII—XIII asrlar), Abul Faraj Bar Ebrey (XIII asr), Hoji Xalifa (XVII asr) kabi Sharq olimlari uni o’z asarlarida eslatadilar.

Ahmad al-Farg’oniyniing hayoti haqidagi eng so’nggi va eng aniq xabar 861-yil bilan bog’lanadi. Mavjud ma’lumotlarga ko’ra, u shu yili Qohira yaqinidagi Roud orolida nilometrni, ya’ni Nil daryosi suvi sathini belgilovchi uskunani yasagan. Biroq al-Farg’oniy qanday qilib

va qanday sharoitda Misrga borib qolgani haqida ham aniq maʼlumot yoʻq. Al-Fargʻoniyning asosiy astronomik asari **“Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi”** (“Kitob al-harakat as-samoviya va javomi’ ilm an-nujum”) XII asrda lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Yevropa tillariga ham tarjima qilinganidan soʻng, uning lotinlashtirilgan nomi Olimning Hozirgi kunda al-Fargʻoniyning sakkizta asari maʼlum boʻlib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador va ular dunyoning Berlin, London, Parij, Tehron, Qohira kabi shaharlaridagi muzeylarda, ilmiy markazlarda saqlanmoqda.

Maʼlumki, Ahmad al-Fargʻoniy avvalo koinot ilmining buyuk olimi. Lekin u Fustotga kelib yashay boshlagach aholiga nisbatan qoʻllanilayotgan soliq adolatsizligidan iztirob chekar, uni isloh qilish choralarini izlar edi.

Toʻrt ming kilometr uzunlikdagi Buyuk Nil Misr xalqi uchun hayot –mamot daryosi edi. Mamlakat hududining atigi olti foizidagina dehqonchilik qilish, biron yegulik yetishtirish mumkin boʻlgan. Bu ham Nil tufayli. Qolgan qismi qumlik boʻlib, daryo suvi yetib bormas edi. Ana shu olti foiz suvli yer xalqni boqib kelgan. Hozir ham shunday. Ammo oʻshanda Nil suv sathi tizginsiz boʻlgan. Yaʼni, bir yil suv sathi koʻtarilsa qirgʻoqdagi dehqon yerlarini suv bosib hosili nobud boʻlardi. Va aksincha,suv sathi pasayib ketsa qirgʻoqdan uzoqroqdagi yerlar qurgʻoqchilikka uchrardi. Shunga qaramay davlat soliqchilari har ikki holatda ham yer egalaridan birdek soliq talab qilgan. Ahmad al-Fargʻoniy yulduzlar harakatini uzluksiz kuzatish barobarida Nil daryosi sathidagi oʻzgarishni daryodan uzoq-yaqinligiga qarab yerlar hosildorligi jadvalini tuzadi va shu tartibda soliq tizimini yaratadi.Nil daryosi orollaridan biri-Roud “burni”ga qurgan “Miqyosi Nil” uskunasi Misrda yangicha soliq miqdoriga asos soldi.

-Ahmad al-Fargʻoniy Misrda ming yildan ziyod davrda adolat tarozusini ushlab turdi va biz misrliklarning oʻnlab avlod-ajdodlari bu buyuk inson siymosi qarshisida hamisha taʼzimdamiz, — dedi Qohira Davlat Universiteti professori Fotih Ahmad bilan suhbatda.

Mana o'sha, bobomiz bundan XII asr muqaddam bunyod etgan "Miqyosi Nil" qurilmasi. 35-40 metrlik keladigan ko'prikdan o'tsangiz temir yog'och (Hindistondan keltirilgan buk daraxtidan) qoplangan sakkiz burchakli, usti doirasimon qubbali oddiy bir binoga duch kelasiz. Nilning bir cheti shu orolga urilib ikkiga bo'linadi. Chapda kanalsimon oqim, o'ngda salkam bir chaqirimcha yastanib oqayotgan hayot daryosi. Har qanday holatda ham suv "Miqyosi Nil" qurilmasiga ochilgan tuynukdan kirib chiqib turadi. Ichkariga kirsangiz o'zingizni go'yo bugun O'zbekiston deb atalmish mamalakatga kelib qolgandek his qilassiz. O'rtada marmar ustun. Unga suv sathi o'lchov chiziqlari tortilgan. Atrof esa yog'och o'ymakorligi hamda sharqona minatyura bezaklari bilan qoplangan. Bobomiz esa suv sathi ko'rsatkichiga nisbatan dehqonning yeri daryodan necha chaqirim naridalgiga qarab qancha soliq to'lashi lozimligini matematik formulalar asosida aniq hisob-kitob qilib belgilab berganlar. Shunday qilib, suv sathi ko'tarilsa yeri daryoga yaqin dehqonlar kamroq, yeri daryodan olisroqdagi dehqonlar ko'proq va aksincha, suv sathi odatdagidan pastlab ketsa daryoga yeri yaqin dehqon ko'proq, yeri uzoqroqdagi dehqon kamroq soliq to'lagan. Aslida oddiy qoidaga o'xshaydi. Ammo unda hozirgi o'lcham birligidagi bir metr o'zgarsa ham soliq miqdori o'zgaradigan jadvalni yaratish darhaqiqat arablarning o'zlari aytganidek, buyuk kashfiyot, yoki haqiqiy adolat tarozusi bo'lgan. Shuning uchun ham oradan ming yildan ziyod vaqt o'tibdiki, arablar hamon alloma nomini cheksiz hurmat bilan tilga oladilar. Shuning uchun ham Ahmad al-Farg'oniy yaratgan "Miqyosi Nil" hamon ishchi holatda saqlab kelingan. Misr Piramidalari va Sfinksni, dunyodagi eksponatlari ko'p va eng boy Qohira muzeyini ko'rgani kelgan besh iqlim sayyohlari bu yerga ham qadam ranjida qilib, bobomiz ruhi oldida bosh egadilar.

Bugungi Qohira bir necha asrlik tarixga ega bo'lgan yangi shahar. Firavnlardan qolgan poytaxt esa — qadim Fustot shahridir. U Qohiraning g'arbida, 6-8 chaqirim narida joylashgan. Hozirga kelib

Fustotdan koʻhna qalʼa devorlarining izlari, urushlar chogʻi vayronaga aylangan turar joy qoldiqlari va balki dunyoning eng qadimiy qabristoni saqlanib qolgan.

Va shu bilan birga Ahmad al Fargʻoniyning bugungi kun ilim fan taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi haqida gapiradigan boʻlsak.

Ahmad al-Fargʻoniy jahon ilm-fani rivojiga ulkan hissa qoʻshgan buyuk oʻzbek olimlaridan biridir. Tarixiy maʼlumotlarga koʻra, uning bebaho merosi olimlar, zamondoshlari uchun amalda qoʻllanma boʻlib xizmat qilgan. Bu fikrni XII asrda olimning “Astronomiya asoslari kitobi” asari lotin va ibroniy tillariga tarjima qilingani ham tasdiqlaydi. Fargʻona shahrida esa olim nomi bilan ataluvchi bogʻ toʻrida al-Fargʻoniyning salobatli haykali qad rostlab turadi. Orziqib kutilgan kun keldi. Quvaning markaziy maydonalirining birida, baland tepalikda Ahmad al-Fargʻoniyning viqorli haykali yubileyga kelgan yuzlab mehmonlar ishtirokida tantanali ravishda ochildi.

Olim umrining soʻnggi yillarini Qohirada oʻtkazdi. U erda u yulduzlarning joylashishini aniqlash va ular orasidagi masofani oʻlchash uchun asbob - astrolabani qurish bilan shugʻullangan. Olim matematik tavsif berdi va ushbu qurilmani takomillashtirish chora-tadbirlarini taklif qildi. Uning Qohiradagi faoliyati samarasi Nilomere yoki Nilometer deb ataladigan qurilish edi. U 861 yilda al-Fargʻoniy boshchiligida Nil daryosidagi suv darajasini oʻlchash uchun qurilgan.

Bu oʻlchovlar Misr hayoti uchun juda muhim edi. Nildagi suvning haddan tashqari koʻtarilishi botqoqlanishga va kuchli suv toshqini yillarida hosilning etishmasligiga olib kelishi mumkin. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning taʼriflariga koʻra, baʼzan Nil suv bosganda, u nafaqat butun deltani, balki uning atrofidagi hududlarni ham suv bosgan, shuning uchun bir qirgʻoqdan ikkinchisiga oʻtish uchun ikki kun kerak boʻlgan. Nil daryosining Roda orolida joylashgan Fargʻoniy nilometri toshqinni bashorat qilishda muhim ahamiyatga ega edi. Ushbu bino hanuzgacha poytaxtning diqqatga sazovor joylaridan biri hisoblanadi.

Va shu bilan birga **“Alfraganus”** shaklida g‘arbda bir necha asr davomida keng tarqaladi. Uning bu kitobi shu asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o‘tadi. “al-Farg‘oniy asarining lotincha tarjimasi birinchi marta 1493-yilda nashr etilgan bo‘lib, u eng qadimgi nashr qilingan kitoblardan hisoblanadi. 1669-yili mashhur Golland matematigi va arabshunosi Yakob Golius al-Farg‘oniy asarining arabcha matnini yangi lotincha tarjimasi bilan nashr etganidan so‘ng, al-Farg‘oniy va uning asarining Yevropadagi shuxrati yanada ortdi. Al-Farg‘oniy nomini Dante (XV asr) va Shiller (XVIII asr) ham eslagan

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulahad Muhammadjonov, O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Buyuk siymolar, allomalar (O‘rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar), 1-kitob, T., 1995
3. Axmedov A., Ahmad al-Farg‘oniy, T., 1998
4. Nosirov A., Hikmatullayev X., Ahmad Farg‘oniy, T., 1966

AL FARGʻONiy ILMIY MEʼROSI, ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI HISSASI, BUGUNGI KUNDAGI OʻRNI

**respublika miqyosdagi iqtidorli talabalar
ilmiy-amaliy konferensiya materiallari toʻplami**

2023 yil 12 aprel

Mazkur toʻplamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi maʼlumotlar va meʼyoriy hujjatlar toʻgʻriligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning oʻzlari masʼuldirlar.

“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 12.05.2023.

“Cambria” garniturası. Qogʻoz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabogʻi 9,1. Shartli bosma taboq 9,3.

Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

 t.me/ Bookmanyprint  +998 99 180 97 10